

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI DSc. 03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

MAHMUDOVA NOZIMAXON BAXRIDDINXONOVNA

**HUDUDIIY TADBIRKORLIKDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(Namangan viloyati misolida)**

08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of Philosophy (PhD)
in economic sciences**

Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna

Hududiy tadbirkorlikda xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish istiqbollari
(Namangan viloyati misolida)..... 3

Махмудова Нозимахон Бахриддинхоновна

Перспективы развития сферы услуг в региональном предпринимательстве (на
примере Наманганской области)..... 23

Makhmudova Nozimakhan Bakhridinkhanovna

Prospects for the development of service industries in regional entrepreneurship (in
the case of Namangan region)..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI DSc. 03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

MAHMUDOVA NOZIMAXON BAXRIDDINXONOVNA

**HUDUDYIY TADBIRKORLIKDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(Namangan viloyati misolida)**

08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi byulletenida B2025.2.PhD/Iqt4210 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Bayxonov Baxodir Tursunbaevich
iqtisodiyot fanlari doktori, dostent

Fayzullaev Nurullo Baxramovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dostent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat _____: _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz).

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: arm@urdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dostent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarining aksariyat qismida kichik va o‘rta korxonalar ish o‘rinlarining 60-70 foizini tashkil etadi, ayniqsa ulgurji va chakana savdo va mehmonxonalar va restoranlarda umuman olganda xizmat ko‘rsatish sohasida kichik va o‘rta korxonalar ustunlik qiladi va ular yangi ish o‘rinlarining nomutasosib ravishda katta ulushiga ega. Taqqoslash uchun rivojlangan mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotidagi kichik va o‘rta biznesning ulushi 50-60 foizni jumladan, Polshada - 51%, Germaniyada - 53%, Finlandiyada - 60%, Gollandiyada - 63% ini tashkil etishini ta’kidlash mumkin¹. Darhaqiqat, AQSh hukumati Qo‘shma Shtatlarda 32 milliondan ortiq kichik biznes mavjudligini taxmin qilmoqda – bu Amerikadagi barcha bizneslarning taxminan 99 % iga teng². Bu esa mavzuni dolzarb ekanligini belgilaydi.

Jahon iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatmoqdaki, xususiyl tadbirkorlik, ayniqsa xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlari jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Ushbu sohaning rivojlanishi mamlakat aholisi boyishiga, iqtisodiyot rivojlanishiga, iste’mol bozori to‘yinishiga, davlat byudjeti tushumlari ko‘payishiga, ishsizlik kamayishiga olib keladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlarining shakllanishi va taraqqiy etishida hamda ularning yuqori samaradorlik bilan ishlashini ta’minlashda ayrim muammolarga ham duch kelinmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf qilish, uning nafaqat amaliy, balki bir qator nazariy masalalarini ham hal etish lozimligi mazkur soha samaradorligini oshirish evaziga mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti barqaror rivojlanishiga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilishini taqozo qilmoqda.

Bugungi kunda iqtisodiyotni yuksaltirish muammolarini hal etishda xizmat ko‘rsatish sohasi alohida o‘rin tutadi. Aholining turli – tuman xizmatlarga bo‘lgan hamda tobora o‘sib va kengayib borayotgan ehtiyojlarini imkon qadar to‘laroq qondirish mamlakatimizda izchilik bilan olib borilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy siyosatning ustivor vazifasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining bosh strategik maqsadi ham ochiq bozor iqtisodiyotini shakllantirish hisoblanadi. Bu borada 2017 - 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustivor yo‘nalishlarida xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish hamda sanoat va xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish vazifalarini belgilab berilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi «Har bir oila — tadbirkor» dasturini amalga oshirish to‘g‘risida»gi PQ-3777-son, O‘zbekiston

¹ Small businesses, job creation and growth: Facts, obstacles and best practices <https://www.oecd.org/cfe/smes/2090740.pdf>

² 10 Most Popular Small Businesses (2021). // <https://www.mightycall.com/blog/10-popular-small-businesses/>

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi to‘g‘risidagi hamda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 28-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4862-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-martdagi “Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-son qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovastion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmun mohiyati, ushbu sohani rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar, uning istiqbollari to‘g‘risida xorijiy olimlardan Kantilon Richard, By Jean-Baptiste Say, J.B.Klark, A.Shapero, L.Sokol, B.Karlof, J.A.Timmons, S.Spinelli, A.Marshallar³ tadqiqot olib borishgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish muammolari va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari MDH davlatlaridan V.X.Belenkiy, A.O.Blinov, X.Stevenson, J.Jarrillo-Mossi va V.V.Kossov⁴larning tadqiqotlarida ko‘rish mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasining samaradorlik ko‘rsatkichlari, uning nazariy va amaliy muammolarini o‘rganish asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi bo‘yicha mahalliy olimlarimizdan akademik S.S.G‘ulomov, K.Muftaydinov,

³ Кантильон Ричард Эссе о природе торговли в общем плане // Мировая экономическая мысль. Сквозь призму веков. — М.: Мысль, 2004. Т. 1. — С. 269—278.; By Jean-Baptiste Say.« A treatise on political economy; or The production, distribution, and consumption of wealth» Translated from the fourth edition of the French, by C. R. Prinsep, M.A. with notes by the translator.// Batoche Books, 2001 y.; Кларк Ж.Б. Распределение богатства. -М., 1994. 40-бет.; Shapero, A.; Sokol, L. The Social Dimensions of Entrepreneurship. *Encycl. Entrep.* 1982, 72–90. Available online: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=1497759 (accessed on 6 February 2020).; Karlöf, B. (1992). *Strategia biznesu. Koncepcje i modele – Przewodnik [Business strategy. Concepts and models – a guide]. Biblioteka menedżera i bankowca.* Warszawa.; Timmons, J. A., & Spinelli, S. (2007), *New Venture Creation. Entrepreneurship for the 21st Century.* McGraw-Hill International Edition. http://window.edu.ru/app.php/catalog/pdf2txp_page=1; Маршалл А. Принципы экономического развития. Пер. с англ. –М.: Прогресс, 1993, Т. 1, 377 б

⁴ Беленький В.Х. Предпринимательство и менеджмент: вопросы соотношения и подготовки кадров. <https://core.ac.uk/download/pdf/38639633.pdf>.; Блинов А.О. Стратегическое развитие территории и поддержки малого бизнеса. // Научно-исследовательского центра корпоративного права, управления и венчурного инвестирования Сыктывкарского государственного университета. <http://koet.syktsu.ru/vestnik/2011/2011-4/1/1.htm>; Stevenson H., & Jarrillo-Mossi J. (1986). Preserving entrepreneurship as companies grow. *Journal of Business Strategy*, 7(1), 10-23.; Коссов В.В. Бизнес-план: обоснование решений. М.: ЕУ ВШЭ, 2000. - 272 с.

X.Aybeshov, Yo.Abdullayev, F.Karimov, D.X.Suyunov⁵ va boshqalarni ilmiy ishlarida ko‘rish mumkin.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat-texnika universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liq bo‘lib, “Hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishning innovastion yo‘nalishlari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Qo‘yilgan maqsadga muvofiq tadqiqot ishining vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

hududiy tadbirkorlikning xizmat ko‘rsatish sohasidagi ahamiyati va nazariy asoslarini yoritish;

hududiy tadbirkorlikda xizmatlar bozorini mohiyati va xizmat ko‘rsatish sohasini xuquqiy asoslarini ahamiyatini ochib berish;

Hududiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;

Namangan viloyati tadbirkorligida xizmat ko‘rsatish sohasining bugungi iqtisodiy holatini o‘rganish;

xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar samaradorligini ekonometrik baholash;

Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishni o‘ziga xos xususiyatlari va muammolarini o‘rganish;

hududiy tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishni xorij tajribasini tadqiq etish;

hududiy tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishni asosiy yo‘nalishlari va takomillashtirish istiqbollarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida Namangan viloyati hokimligi hamda uning hududiy boshqarmalari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, Namangan viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyatini rivojlantirish hamda korxonalarni tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, statistik kuzatish, statistik jamlash va guruhlash, o‘rtacha miqdorlar, dinamika qatorlari, korrelyastion va regression tahlil, ekonometrik modellashtirish hamda prognozlash kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko‘rsatkichlarning vazn qiymatlaridan foydalangan holda Inson kamoloti (0,177-0,182), oila ravnaqi (0,172-0,177), hudud taraqqiyoti (0,166-0,172), davlat ravnaqi

⁵ Фуломов С.С. Тadbirkorlik va kichik biznes. – Т.: 1998.; К.Муфтайдинов, Х. Айбешов «Кичик бизнесни бошқариш» 2003 й 6-7 б.; Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тadbirkorlik. - Т.: Мехнат. 2011 й.; Суюнов Д.Х. Кичик бизнес субъектларида бошқарувни ташкил қишиш ва унинг самарадорлигини ошириш йўналишлари.икт.фан.ном.дис.автореф. Тошкент: 2004.-21 б.

(0,161-0,166), mehnat jamoalari takomillashuvi (0,156-0,161) va jamiyat taraqqiyoti (0,151-0,156) bilan bog‘liq hududiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohalari guruhlangan;

mintaqada tadbirkorlik rekreatsiya muassasalari yotoqxonalarining (1 guruh 10-200 nafargacha, 2 guruh 201-500 nafargacha va 3 guruh 500 dan ortiq) guruhlari bo‘yicha tashrif buyuruvchilar sonini oshirish bo‘yicha ko‘p omilli TBS=11,1-0,05* XKX -0,03* OS +0,18* XTS modeli taklif etilgan;

standartlashtirilgan ma‘lumotlarga va o‘ziga xos indeksning og‘irligiga asoslanib, xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi indeksi - SDI ni hisoblash uchun keng qamrovli juda past ($SDI < 0,040$), o‘rtachadan past ($0,056 < SDI < 0,071$ gacha), o‘rtacha ($0,071 \leq SDI < 0,087$ gacha), o‘rtachadan yuqori ($0,087 \leq SDI < 0,102$ gacha), yuqori ($0,102 \leq SDI < 0,118$ gacha) va eng yuqori ($0,118 \leq SDI$) mezonlar taklif etilgan;

Namangan viloyatining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlantirishning istiqbol yo‘nalishlari 2030-yilgacha ko‘p omilli prognoz natijalari asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi shundan iborat bo‘ladiki, tadqiqotda ishlab chiqilgan g‘oya va takliflar xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlanishi mexanizmini amalda qo‘llash va takomillashtirish, uning nazariy va amaliy muammolarini o‘rganish asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili amalga oshirilib, ularning samaradorlik ko‘rsatkichlari chegaralari taklif etilgan hamda iqtisodiyotni raqamlashtirish nazariyasi va amaliyotiga tayangan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish jarayonlarini zamon talablari asosida shakllantirish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan bo‘lib, xizmat ko‘rsatish korxonalarini samaradorligini oshirishda foydalanish imkoniyatini beradi. Shuningdek, tadqiqotni bajarish vaqtida olingan natijalar, o‘rganilgan masalalar, taklif etilgan asosiy yo‘nalishlardan xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatlarida qo‘llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi, Savdo sanoat palatasi, Namangan davlat statistika boshqarmasi statistik ma‘lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mas‘ul tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ulardan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlantirishga oid nazariy-metodologik va statistik usullarda tahlil qilishga oid ilmiy va uslubiy yondashuvlar hamda mavzuga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlantirish hamda prognozlashda, sohani yanada samarali rivojlantirish rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmui va dasturlarni ishlab chiqishda, shuningdek, nazariy-statistik materiallardan oliy ta‘lim

muassasalarida “Statistika”, “Ekonometrika asoslari”, “Mintaqa iqtisodiyoti” kabi fanlarni o‘qitishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hududiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ko‘rsatkichlarning vazn qiymatlaridan foydalangan holda, inson kamoloti (0,177-0,182), oila ravnaqi (0,172-0,177), hudud taraqqiyoti (0,166-0,172), davlat ravnaqi (0,161-0,166), mehnat jamoalari takomillashuvi (0,156-0,161) va jamiyat taraqqiyoti (0,151-0,156) bilan bog‘liq hududiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohalarini guruhlash bo‘yicha taklifi Namangan viloyati hokimligi hamda uning hududiy boshqarmalarining amaliyotiga joriy etilgan (Namangan viloyati hokimligining 2025-yil 18-martdagi 02/10-1125-son ma‘limotnomasi). Ushbu taklif kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasining muhitining shakllanishi, hududiy-iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlik darajasini oshishini ta‘minladi;

mintaqada tadbirkorlik rekreatsiya muassasalari yotoqxonalarining (1 guruh 10-200 nafargacha, 2 guruh 201-500 nafargacha va 3 guruh 500 dan ortiq) guruhlari bo‘yicha tashrif buyuruvchilar sonini oshirish bo‘yicha ko‘p omilli $TBS=11,1-0,05*XX-0,03*OS+0,18*XTS$ modeli bo‘yicha takliflar Namangan viloyati hokimligi hamda uning hududiy boshqarmalarining amaliyotiga joriy etilgan (Namangan viloyati hokimligining 2025-yil 18-martdagi 02/10-1125-son ma‘limotnomasi). Mazkur taklif natijalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishiga omillar ta‘sirini ekonometrik modellar asosida baholash imkonini 10,0-15,2 foizga oshirgan;

standartlashtirilgan ma‘lumotlarga va o‘ziga xos indeksning og‘irligiga asoslanib, xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi indeksi - *SDI*ni hisoblash uchun keng qamrovli juda past ($SDI < 0,040$), o‘rtachadan past ($0,056 < SDI < 0,071$ gacha), o‘rtacha ($0,071 \leq SDI < 0,087$ gacha), o‘rtachadan yuqori ($0,087 \leq SDI < 0,102$ gacha), yuqori ($0,102 \leq SDI < 0,118$ gacha) va eng yuqori ($0,118 \leq SDI$) mezonlar bo‘yicha taklifi Namangan viloyati hokimligi hamda uning hududiy boshqarmalarining amaliyotiga joriy etilgan (Namangan viloyati hokimligining 2025-yil 18-martdagi 02/10-1125-son ma‘limotnomasi). Ushbu taklif natijasida hududda xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sonini 10,0 foizga oshirgan;

Namangan viloyatining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlantirishning istiqbol yo‘nalishlari 2030-yilgacha ko‘p omilli prognoz natijalari asosida ishlab chiqilgan takliflar Namangan viloyati hokimligi hamda uning hududiy boshqarmalarining amaliyotiga joriy etilgan (Namangan viloyati hokimligining 2025-yil 18-martdagi 02/10-1125-son ma‘limotnomasi). Ushbu ilmiy yangilik natijalaridan hududlardagi kichik biznes sohasining kelgusidagi rivojlanish istiqbollari baholash imkoniyatlarini kengaytirilib, Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning istiqbolli dasturini ishlabchiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 4 ta, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma‘ruza qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan mahalliy ilmiy jurnallarda 5 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 4 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 156 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

“Hududiy tadbirkorlikda xizmatlar bozori va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida, hududiy tadbirkorlikning xizmat ko'rsatish sohasidagi ahamiyati va nazariy asoslari, xizmatlar bozorini mohiyati va xizmat ko'rsatish sohasini xuquqiy asoslarning ustuvorligi hududiy tadbirkorlikda xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tadqiq qilingan.

Jahon iqtisodiyoti tajribasidan ma'lumki, hozirgi kunda mamlakatlarning YaIM tarkibidagi xizmat ko'rsatish sohasining ulushi boshqa tarmoqlarga nisbatan yuqori bo'lganligi sababli dunyo iqtisodiyoti allaqachon xizmat ko'rsatuvchi iqtisodiyot sifatida qabul qilingan. Ushbu sohaning son-sanoqsiz afzalliklari tufayli aksariyat mamlakatlar aholi farovonligini oshirish va aholi bandligini ta'minlash uchun xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirishga e'tibor berishadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan hozirgi kunda xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan ba'zi chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”da “xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, xizmatlarning yalpi ichki mahsulotni shakllantirishdagi o'рни va hissasi, mamlakatning tub o'zgarishi” masalalari ta'kidlangan bo'lib, bunda birinchi navbatda zamonaviy yuqori texnologiyalarga ko'rsatiladigan xizmatlar to'g'risida bir qator vazifalar belgilab berilgan.

Xizmat ko'rsatish sohasi va uning tabiatini iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida nazariy jihatdan o'rganib, unga quyidagicha ta'rif berish bizningcha o'rinli: “Xizmat bu insonning, mehnat jamoasining, hududning, davlat va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga qaratilgan kishilarning naf keltiradigan ongli faoliyatidir”. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan va berilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda aholi o'rtasida xizmat ko'rsatish guruhlanishi bo'yicha ularni yoshlarga ajratib anketa so'rovnomalari o'tkazildi va unga ko'ra quyidagi natijaga ega bo'lindi (1-jadval).


1-jadval

Hududiy tadbirkorlikda xizmat ko'rsatish sohasini guruhlanishi

| Xizmatlarning guruhlanishi | 15-21 yosh | 22-30 yosh | 31-45 yosh | 46-60 yosh | Ko'rsatkichlar vazni |
|---|------------|------------|------------|------------|----------------------|
| Inson kamoloti bilan bog'liq xizmatlar | 19,4 | 16,5 | 17,5 | 19,3 | 0,18175 |
| Oila ravnaqi bilan bog'liq xizmatlar | 17 | 17,2 | 15,4 | 18,6 | 0,1705 |
| Hudud taraqqiyoti bilan bog'liq xizmatlar | 15 | 17,8 | 17,1 | 17 | 0,16725 |
| Davlat ravnaqi bilan bog'liq xizmatlar | 16,3 | 17,5 | 17,1 | 15,4 | 0,16575 |
| Jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq xizmatlar | 14,7 | 15 | 15,1 | 15,6 | 0,151 |
| Mehnat jamoalari takomillashuvi bilan bog'liq xizmatlar | 17,6 | 16 | 17,8 | 14,1 | 0,16375 |

Ko'rsatiladigan xizmatlar malaka saviyasi mutlaqo turlicha bo'lgan kishilar tomonidan ko'rsatilishi mumkin. Yuqori malaka talab etuvchi xizmatlar uchun mijozlar ularni tanlashda dadillik qobiliyatlarini ko'proq namoyon etishadi. Mana shuning uchun ham mutaxassislar ko'pincha iste'molchilarning xolis turishlariga muvaffaq bo'lishadi. Past malaka talab etuvchi xizmatlar uchun tanlashning ehtimoli bo'lgan muqobillari odatda ancha keng bo'lib, ko'pgina hollarda hududiy urf-odatlar va mintelitetimizdan kelib chiqadigan bo'lsak, xizmatlar marketingi foydaga ko'z tutishi ham, ko'z tutmasligi ham mumkin.

Jadvalda keltirilgan anketa so'rovnomalari natijalari bo'yicha aniqlangan ko'rsatkichlarning vazn qiymatlaridan foydalangan holda statistik guruhlash usuli yordamida oraliqlarga asoslangan hududiy tadbirkorlikda xizmat ko'rsatish sohalarini guruhlanishini taklif etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. (2-rasm).



2-rasm. Hududiy tadbirkorlikda xizmat ko'rsatish sohalarini guruhlanishi

Xizmatlarga an'anaviy nuqtai nazar shundan iboratki, bu bir kishining boshqa bir kishi uchun qilgan ishidan boshqa narsa emas. Biroq bu qarash haddan tashqari cheklangan. Xizmatlar sarmashaqqatligi bilan farqlanadi, xususan, avtomatlashtirilgan mashina yordamida va qo'lda yuvish yoki avtomatlashtirilgan bank xizmatlari va

xodimlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmat kabi. Yuqori malakali xodim jalb qilinganda yoki xizmatlar mijozga uning uyida yoki uning ish joyiga borib ko'rsatiladigan bo'lsa, xizmatning sermashaqqatligi keskin oshadi.

Shuningdek, xizmatlar mijozlar bilan aloqalar darajasiga ko'ra ham farqlanishi mumkin. U hollarda xizmat etarlicha tig'iz bo'lganda xodimni texnik tayyorgarlikdan tashqari xizmatni malakali bajarish, insonlararo munosabatlar masalalari bo'yicha ham o'qitish zarur. Servis sohasida faoliyat ko'rsatuvchi ko'pgina firmalar bu tayyorgarlikni pisand etmay xato qilishadi. Ular uskunalarni ta'mirlovchi kishilar, avtomexaniklar va servis sohasida ishlovchi boshqa kishilar shikoyatlarga o'rnida munosabat bildiruvchi sotuvchilar hamda mutaxassislar singari ishlashlari lozimligini tushunib etishlari zarur. Ular firmaning mijoz bilan yagona aloqasi bo'lib ham xizmat qilishadi.

Ushbu jihatlar jahon miqyosida umume'tirof etilgan xususiyatlardan tashqari mamlakatimiz va uning hududlari taraqqiyot yo'liga mos xususiyatlarni ham o'z ichiga olgan. Hozirgi kunda keng qamrovli xizmatlar bozori - aholiga maishiy, ma'rifiy, tibbiy, texnik, kommunal, madaniy, aloqa, transport, konsalting, injinering, lizing va boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha oldi-sotdi munosabatlarini ifodalaydi. Xorijiy tajribalarni o'rganish va taqqoslash shundan dalolat beradiki, tadbirkorlik faoliyati aholiga xizmat ko'rsatishni ishlab chiqarish va amalga oshirish funksiyasi sifatida moddiy-texnik ta'minot, marketing faoliyati, xodimlarni boshqarish va moliyaviy hisob bilan bog'liq bo'lgan bir qator funksiyalarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi, bu kichik korxonalar uchun har doim ham bajarilmaydi. Bu esa kichik biznes uchun bozor infratuzilmasi elementlari tizimini shakllantirishni taqozo etadi. Amalga oshirilgan funksiyalarga qarab, xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznesning bozor infratuzilmasi elementlari tizimi moddiy-texnikaviy, moliyaviy xodimlarni ta'minlash bloklari, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bloki va axborot-maslahat bloklari bilan ifodalanishi mumkin (3-rasm).

Dissertatsiyaning “**Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasini bugungi holati va iqtisodiy tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida Namangan viloyati tadbirkorligida xizmat ko‘rsatish sohasining hozirgi holatining iqtisodiy tahlili va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar samaradorligini ekonometrik baholash hamda Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishni o‘ziga xos xususiyatlari va muammolari o‘rganilgan.

Kichik biznes subyektlarining bandlikni ta’minlash, mamlakatning muvozanatli mintaqaviy rivojlanishi va eksportni rag‘batlantirishga qo‘shgan hissasini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi hukumati kichik biznes sektorini, xususan, barcha iqtisodiy tarmoqlar hamda aholiga xizmat ko‘rsatishni rag‘batlantirish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan turli siyosat va ko‘mak tizimlari mahalliy resurslar, xomashyo hamda mahalliy ishchi kuchidan foydalanishni talab qiladi. Ushbu yaratilgan imkoniyatlardan to‘la qonli foydalanish natijasida Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmat ko‘rsatish sohasi yildan yilga o‘sib, ijobiy natijalarga erishib kelmoqda (1-jadval).

1-jadval

Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy ko‘rsatkichlari

| T/r | Ko‘rsatkichlar nomi | 2015-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|-----|--|----------|----------|----------|----------|----------|
| 1. | YaHMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmat ko‘rsatish korxonalarining ulushi, % | 73,9 | 66,4 | 67,8 | 66,3 | 67,4 |
| 2. | Korxonalari soni, birlik | 6598 | 8321 | 9932 | 10321 | 10913 |
| 3. | Xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd. so‘m | 1057,7 | 1833,6 | 2998,5 | 3366,9 | 3738,8 |

2015-yilda YaHMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmat ko‘rsatish korxonalarining ulushi 73,9 %ni tashkil etgan bo‘lsa 2023-yilga kelib 2015-yilga nisbatan 6,5 %ga kamayib 67,4 foizni tashkil etdi. Bunday o‘zgarish asosan 2020-yilda kutilmaganda butun dunyoda yuzaga kelgan pandemiyaning ta’siri natijasi deb tushunish lozim. Ammo, 2020-yildan (66,4 %) boshlab barcha tarmoqlarga qaratilgan e’tibor qatorida xizmatlar sohasining ham ijobiy o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmat ko‘rsatish sohasidagi o‘rni yuqoriligidan dalolat beradi.

Namangan viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni ham 2015-yilga nisbatan 2023-yilda 4315 taga o‘sib 10913 taga etgan va bu o‘z navbatida Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmat ko‘rsatish hajmi 2015-yilda 1057,7 mlrd. so‘m va 2023-yilda 3738,8 mlrd. so‘mga etib, xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sonini nafaqat miqdor jihatidan balki, sifat jihatidan ham o‘sib borayotganligini ifoda etadi.

Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmat ko‘rsatish sohasining sohada bandlar soniga nisbatan xizmat ko‘rsatishdan tushgan daromadlar

2015-yilda 25,7 mln. soʻmga tushgan boʻlsa 2023-yilga kelib ushbu koʻrsatkich 51,9 mln. soʻmga tushib bu oʻz navbatida sohada faoliyat koʻrsatayotgan xizmatchilarni koʻnikma va salohiyatini oshib borganligini koʻrsatadi. Bundan tashqari, sohada oʻz isteʼmolchilarni shakllantirishda xizmatlarning yangiligi va uning mijoz manfaatiga mosligi, xizmatlarning sifati, narxi va universallik darajalariga ahamiyat berilayotganligidan deb, qarash mumkin.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqdaki, rivojlangan davlatlar tajribasidan xususiy tadbirkorlik, ayniqsa, xizmat koʻrsatish sohasi subyektlari jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni taʼminlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Ushbu sohaning rivojlanishi mamlakat aholisi boyishiga, iqtisodiyot rivojlanishiga, isteʼmol bozori toʻyinishiga va davlat byudjeti tushumlari koʻpayishiga hamda ishsizlik kamayishiga olib keladi.

Rekratsiya va turizm faoliyatiga hamda uning rivojlanishiga taʼsir qiluvchi toʻqqizta eng muhim omillar guruhini ajratib, rekratsiya va turizm faoliyatining ishlashi va rivojlanishiga taʼsir qiluvchi aniqlangan omillar guruhining har birini ochib beramiz. Bunda birinchisi, Rekratsiya va turizm maskanining xizmatlar bilan bogʻliq omillar, boʻlib, isteʼmolchining yashash joyiga nisbatan qulay joylashuvi tabiiy-iqlim sharoitlari bilan bogʻliq omillar, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat bilan bogʻliq omillar, infratuzilmasi holati bilan bogʻliq omillar, rekratsiya va turizm faoliyatini davlatning pul-kredit, moliyaviy, investition, soliq va byudjet siyosatiga taalluqli omillar, hududiy va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatiga taalluqli omillar, sogʻliqni saqlash muassasalari egalarining xatti-harakatlari bilan bogʻliq omillar, sogʻliqni saqlash muassasalarining moliyaviy-xoʻjalik faoliyati bilan bogʻliq omillar hamda tibbiy xizmatlar isteʼmolchilari uchun mintaqaviy va global raqobat bilan bogʻliq omillarga ajratilgan.

Rekratsiya va turizm faoliyatida xizmat koʻrsatish sohasidagi kichik korxonalar samaradorligini baholash uchun jahon amaliyotida ishlab chiqilgan koʻrsatkichlar majmuasidan foydalanish mumkin. Xalqaro miqyosga koʻra, korxonaning sifati va samaradorligini baholash muvofiq tashrif buyuruvchilar sonini, muassasada xizmat koʻrsatuvchi xodimlar soni, muassasada mavjud oʻrinlar soni va muassasada mavjud xizmat turlari soni koʻrsatkichlar boʻyicha amalga oshiriladi.

Har bir rekreatsiya - turizm va sogʻlomlashtirish muassasalari yotoqlarning 1 guruh - 200 oʻringacha; 2 guruh - 201 dan 500 oʻringacha; 3 guruh - 500 dan ortiq yotoqxona mavjudligi bilan ajralib turadi. Sanatoriy va sogʻlomlashtirish muassasalarining bunday guruhlanishi omillar taʼsirini baholashning tegishli usullarini qoʻllash imkonini beradigan 30 dan ortiq obyektlarni oʻz ichiga olgan sogʻliqni saqlash muassasalarining faqat bitta guruhini ajratib koʻrsatish imkonini beradi.

Tadqiqot uchun tanlangan “Doktor” MCHJ va “Erkin sihatgohi” MCHJlar 1-guruhga taalluqli boʻlib, 200 oʻringa moslashtirilgan va tijorat asosida ishlashini eʼtiborga oladigan boʻlsak shu maʼnoda, “Doktor” MCHJ va “Erkin sihatgohi” MCHJlarda 2010-2024-yillarda tashrif buyuruvchilar sonini - TBC, muassasada xizmat koʻrsatuvchi xodimlar soni – XKX, muassasada mavjud oʻrinlar soni – OS va muassasada mavjud xizmat turlari soni – XTSni taʼsirida oʻzgarishini ekonometrik tahlilini amalga oshiramiz. Buning uchun avvalambor, ushbu omillarning natijaviy va oʻzaro korrelyastion bogʻlanishini koʻrib chiqamiz (2-jadval).

Tanlangan “Doktor” MCHJ va “Erkin sihatgohi” MCHJlarning ekonometrik tahlil natijalari

| Tadbirkorlik subyektlari | Regressiya tenglamalari | t=2,2009852 | F=3,5874 | MAPE<10; TIC<1 |
|--------------------------|--|---|--------------------------|-------------------------|
| “Doktor” MCHJ | TBS=7,72- 0,027*XKX+0,026*OS+0,15*XTS (1) | t _{XKN} =-0.8038 t _{OS} =-1.2455 t _{XTS} =3,3111 | F _{his} =21.013 | MAPE=6,87; TIC=0,045 |
| “Erkin sihatgohi” MCHJ | TBS=7,72- 0,027*XKX+0,026*OS+0,15*XTS (2) | t _{XKN} =-1.3047 t _{OS} =7.7223 t _{XTS} =0.906 | F _{his} =313.2 | MAPE=2,17; TIC=0,012 |

Aniqlangan (1)-tenglamaga iqtisodiy izoh beradigan bo‘lsak, hozirgi kunda agar “Doktor” MCHJda xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar va o‘rinlar sonini sonini 10 %ga oshirganda tashrif buruvchilar soni mos ravishda 421 kishiga va 559 nafarna kamayishi aniqlandi. Bu esa o‘z navbatida hozirgi kunda “Doktor” MCHJ da xodimlar va o‘rinlar sonini me‘yor darajasidan ko‘pligini ifoda etib, kerak bo‘lsa ularni mavsumiy ish bilan ta‘minlash yoki tashrif buyuruvchilar sonini oshirish masalasini o‘ylab ko‘rish lozim. Agar MCHJda xizmat turlarini 10 %ga oshirilsa, tashrif buruvchilar sonini mos ravishda 0,5 va 0,3 foizga qisqarishi kutiladi. Ammo, “Doktor” MCHJga tashrif buyuruvchilar sonini xizmatlar sonini 10 %ga oshirilsa, keluvchilar sonini 705 kishiga oshishi aniqlandi. Bundan ko‘rinadiki, “Doktor” MCHJda mavjud o‘rinlar va xodimlar hatto mavjud imkoniyatlar ham viloyatdagi boshqa rekratsiya turizm maskanlari o‘rtasidagi raqobatga bardosh berolmaydi. Shuning uchun muassasada boshqa viloyatdagi xizmat turlaridan ko‘ra yangilarini ishga tushirish, marketologlar faoliyatini takomillashtirish, eng asosiysi reklamani kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Aniqlangan (2)-tenglamaga iqtisodiy izoh beradigan bo‘lsak, hozirgi kunda agar “Erkin sihatgohi” MCHJda xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar sonini 10,0 %ga oshirganda tashrif buyuruvchilar soni 149 nafarga qisqarishi va o‘rinlar sonini hamda xizmat turlari sonini 10,0 %ga oshirganda esa tashrif buruvchilar soni mos ravishda 476 kishi va 49 nafarga oshishi kuzatildi. Bundan ko‘rinadiki, “Erkin sihatgohi” MCHJ da mavjud o‘rinlarga qo‘shimcha o‘rinlarni yaratish birinchi navbtdagi masala ekanini e‘tiborga olgan holda yangi binolarni qurish lozim. Bundan tashqari, muassasada boshqa viloyatdagi xizmat turlaridan ko‘ra yangilarini ishga tushirish, marketologlar faoliyatini takomillashtirish, eng asosiysi reklamani kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyaning **“Hududiy tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish sohaslarini rivojlantirishni takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida hududiy tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish sohaslarini rivojlantirishning xorij tajribasi o‘rganilib, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish strategiyalaridan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish hamda sohaslarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va takomillashtirish istiqbollari belgilab berilgan.

Hozirgi kunda xizmat ko‘rsatish sohasida bandlikni rag‘batlantirish tadbirkorlik faoliyatini faollashtirish, yangi ish o‘rinlari yaratishni rag‘batlantirish, xizmatlar

narxini oshirmasdan, ish haqini oshirish kabi asosiy yo‘nalishlarga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik faoliyatini faollashtirish siyosiy va iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirishni, investitsiya muhitini yaxshilashni taqozo etadi. Ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekiston Respublikasida ham yashirin iqtisodiyot mavjud, shuning uchun birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ko‘paytirishga sharoit yaratish kerak.

Xususan, korxonalar rasmiy ro‘yhatdan o‘tkazilgandan keyin imtiyozli shartlarda qo‘shimcha kredit resurslarini taqdim etish va byurokratik to‘siqlarni kamaytirish lozim. Yana bir rag‘batlantiruvchi omil - milliy ishlab chiqaruvchilar uchun xizmatlarning zamonaviy turlari va ularni ko‘rsatish usullarini o‘zlashtirish uchun respublikada qo‘shimcha bepul xizmat ko‘rsatish iqtisodiy zonalarini yaratish kerak. Bu esa o‘z navbatida, ushbu sohaga xorijiy investitsiyalar, texnologiya va menejmentni jalb qilishga xizmat qiladi, shuningdek, yashirin sektor hajmini qisqartirish imkonini beradi.

Keyingi yo‘nalish – tadbirkorlar bilan treninglar, o‘quv seminarlari o‘tkazish va kompleks maslahatlar berish. Bu borada, xizmat ko‘rsatish sohasida biznes yuritishning o‘ziga xos xususiyatlariga, ijodiy g‘oyalarni rivojlantirishga, biznes-reja yozishga, reklama kompaniyasini o‘tkazishga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ish haqi darajasini oshirish uchun bizningcha, soliq yukini kamaytirish eng samarali usuldir. Shuningdek, qayd etilgan muammolarni hal etishning eng samarali yo‘li yagona ijtimoiy to‘lov stavkalarini pasaytirishdir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yagona ijtimoiy to‘lov stavkalarini uchdan biriga qisqartirish ish haqi darajasini 18,12% ga oshishiga olib keladi.

Shuningdek, korxonalarining bo‘shatilgan mablag‘larni ish haqi darajasini oshirishga yo‘naltirish majburiyatini me‘yoriy mustahkamlashni nazarda tutuvchi ma‘muriy-huquqiy hujjatlarni qo‘llash zarur. Xizmat ko‘rsatish sohasida bandlikning o‘sishiga qo‘shimcha rag‘batlantiruvchi omil ijtimoiy to‘lovlar xarajatlarini qoplash bo‘ladi. Xizmat ko‘rsatish sohasini tartibga solish mexanizmi turini tanlash uchun biz milliy iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasining umumiy rivojlanish indeksini (*SDI*) hisoblash usulidan foydalanamiz⁶.

Umumiy rivojlanish indeksining dinamik xususiyatlarini aks ettirish uchun standartlashtirish kursida dastlabki ma‘lumotlar nisbat usuli bilan qayta ishlandi, bu tekshirish davri qiymatini mos yozuvlar davriga bo‘linadi.

$$V_i = X_{it} / X_{i(t-1)} \quad (3)$$

Bu erda: V_i - i -indeksning normallashtirilgan qiymati.

X_{it} - t -fazadagi i -indeksning qiymati (kuzatish davrining qiymati);

$X_{i(t-1)}$ esa $t-1$ davridagi i - indeksning qiymati (asosiy davr qiymati).

Standartlashtirilgan ma‘lumotlarga va o‘ziga xos indeksning og‘irligiga asoslanib, xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi indeksini hisoblash uchun keng qamrovli indeks usuli qo‘llaniladi. Ushbu qiymat quyidagicha formula bilan hisoblanadi:

⁶ Han, S.T. (2014) Construction and Improvement of China’s Service Industry Price Index System. China Statistics, No. 6, 9-11..

$$SDI = \sum W_i \cdot V_i \quad (4)$$

Bu erda: *SDI* - xizmat ko'rsatish sohasining umumiy rivojlanish indeksi;

W_i - *i* indeksning og'irligi;

V_i - *i* indeksining standartlashtirilgan qiymat. Hisob-kitob natijalari bo'yicha olingan qiymatlar quyidagi mezonlar bo'yicha ajratiladi:

- juda past ($SDI < 0,040$);
- o'rtachadan past ($0,056 < SDI < 0,071$ gacha);
- o'rtacha ($0,071 \leq SDI < 0,087$ gacha);
- o'rtachadan yuqori ($0,087 \leq SDI < 0,102$ gacha);
- yuqori ($0,102 \leq SDI < 0,118$ gacha);
- eng yuqori ($0,118 \leq SDI$).

